

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) O.Tojiboyeva taqrizi ostida

Avazova Sevinch Pulat qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
2-bosqich magistranti
sevinchavazova785@gmail.com

XALQ IJODIDAGI MUNOZARALARDA MAVZU VA G‘OYA

Annotatsiya: Ushbu maqolada eng qadimiy janrlardan sanalgan munozaraning g‘oya va mavzu ko‘lami janrning ildizlaridan biri bo‘lgan’ lapar -u o‘lanlar misolida tadqiq qilingan. Munozaralearning g‘oyaviy- badiiy ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: munozara janri, lapar, o‘lan, mavzu, ijrochi.

Munozara janr sifatida bir qancha bosqichlarni bosib o‘tgan. Dastavval adabiy janr sifatida xalq og‘zaki ijodida shakllangan. Misol tariqasida Germaniya, Angliya va Skandinaviya mamlakatlari, Shvetsiya, shuningdek, yoqut xalqining Yoz va Qish o‘rtasidagi kurashga bag‘ishlangan xalq o‘yinlarini keltirsak bo‘ladi. Bundan tashqari O‘rta Osiyo xalqlarining marosim folklorida ham munozara janrining ildizlari namoyon bo‘ladi. “Filologiya fanlari doktori Sh. Xolmatovning ta’kidlashicha, “tarixiy faktlar, yozma va og‘zaki adabiyot namunalari shundan guvohlik beradiki, O‘rta Osiyo xalqlari (o‘zbeklar, tojiklar, qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar) madaniy hayotida qadim-qadim zamonlardan buyon aytishuvlar, o‘lanlar, yor-yorlar, latifalar, loflar, pantomimalar muhim o‘rin tutgan. Bular esa o‘z navbatida urf-odat, narsa-predmetlar va tabiat fasllariga oid munozaralarning paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan”¹. Munozara janrining elementlarini turkiy xalqlar miflarida ham ko‘rsak bo‘ladi. Xususan, turkiy qavmlarning paydo bo‘lishiga oid bir mifda aytishuvchicha, Yoz qizi bilan Qish qizi o‘rtasida kim qudratlid degan bahs paydo bo‘ladi-yu, bu tortishuv oxirida Yoz qizi g‘alaba qiladi. Ushbu munozarada bahsga kirishgan personajlar yaxshilik va yomonlik, ezzulik va yovuzlik kabi ikki qarama-qarshi tushunchaning ramziy ko‘rinishi bo‘lib, albatta, yozning qishdan ustun kelishi kishilar ko‘nglida savob amallarga rag‘bat paydo qiladi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da ham Zardusht va Axuramazda munozarasiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Baxshi-shoirlarimiz ijodida ham munozara janri namunalari ko‘zga tashlanadi. Xususan, Ermat Yunus o‘g‘lidan yozib olingan “Donlar tortishuvi”da tariq, qo‘noq, bug‘doy, arpa, no‘xat, jo‘xori kabi olti xil donlarining o‘zaro bahs-munozarasi tasvirlanadi.

Turkiy xalqlar og‘zaki ijodida munozara janrining ildizlaridan bo‘lgan aytishuv badihago‘y xalq shoirlari, baxshi, jirov, oqin, xalfa va laparchilarning o‘ziga xos bellashuvi, mushoira yo‘li bilan ularning iste’dodlarini sinovdan o‘tkazuvchi janr hisoblanadi. Bundan tashqari aytishuvlar “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Bozirgon va Go‘ro‘g‘li” singari xalq eposlari tarkibida ham faol qo‘llanilib, asar qahramonlari faoliyatini yana ham yorqin namoyon etishda, ularning she’riy iste’dodi, quvvayi hofizasi qay darajadaligini ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aytishuvlar nafaqat xalq baxshilari, shoirlari, jirovlari, oqinlari o‘rtasidagi ijodiy musobaqa, balki milliy marosimlarimizda yigitlar bilan qizlarning yoki ikki guruhning o‘zaro sezgirlik, zukkolik va hozirjavoblik ko‘rigi sifatida ham mashhurdir.

Biz quyida munozara janrining ildizlaridan hisoblangan o‘zbek marosim folkloriga oid lapar va o‘lan aytishuvlarining ayrim namunalari orqali xalq og‘zaki ijodidagi munozaralarning g‘oyaviy va mavzuviy ko‘lамиni aniqlashga harakat qildik. Bundan oldin esa mavzu va g‘oya haqida biroz to‘xtalib o‘tmochimiz.

“Adabiy asar uchun asos qilib olingan fikr va maqsad uning mavzusidir. Mavzu (arabcha so‘z bo‘lib, “qo‘yilgan, tartibga solingan” degan ma’noni bildiradi) – badiiy mazmun komponenti, asarda qo‘yilgan ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy, falsafiy va boshqa muammolarni badiiy idrok etish uchun tanlab olingan va tasvirlangan hayot materiali. Adabiyotshunoslikda ikki ma’noda: asarda tasvirlangan hayot materiali hamda badiiy asarda idrok etish uchun qo‘yilgan ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy, falsafiy va boshqa muammolar majmuyi. Yozuvchi voqelikni xolis turib gavdalantirganida ham undagi nimanidir tasdiqlaydi, nimanidir inkor etadi. Ijodkor maqsadini boshqarib, uning qarashlari, hodisaga yondashishlarini ma’lum bir izga solib turadigan ana shu hodisa g‘oyadir. G‘oya badiiy mazmunning muhim komponenti bo‘lib, u asardan anglashiladigan, undan kelib chiqadigan obrazli, umumlashma

¹ Xolmatov Sh.K. O‘rta Osiyo xalqlari adabiyotida masal janri. -Samarqand, 1989. 126-b.

fikr bo‘lib, u asarda diqqat qaratilgan voqeа-hodisalarga muallifning g‘oyaviy-hissiy munosabati, badiiy idrok etilishi va baholanishi natijasida namoyon bo‘luvchi badiiy hukm, xulosadir. G‘oya mazmunning o‘zak komponentidir. G‘oya har qanday asarda bo‘ladi va o‘zining mazmun-mohiyati, ko‘lami, qamrovi, ifodalanish darajasi va boshqa jihatlariga ko‘ra farqlanadi. **Mavzu va g‘oya bir-biriga bog‘liq hodisadir. Chunki har qanday mavzuga muayyan maqsad asosida yondashiladi. Shu bois mavzu bitta, undan anglashiladigan g‘oyalar esa turliche bo‘lishi mumkin.** G‘oya ijodkorming dunyoqarashiga, nuqtayi nazariga bog‘liqdir. Har qanday san‘at asarida ma’lum bir g‘oya ifodalanadi. Negaki, g‘oya fikrdir².

Laparlар ham, o‘lanlar ham xalq qo‘shiqlarining bir turi bo‘lib, yigit va qiz, ikki qarama-qarshi jins o‘rtasida aytishuv tarzida ijro qilinadi. Aksariyat hollarda laparlар nikoh to‘yi, aniqrog‘i, nikohdan bir kun oldin bo‘lib o‘tadigan “qiz bazmi”da aytilsa, o‘lanlar nikoh to‘yi, beshik to‘yi kabi har bir to‘y-tantanalarda ijro etiladi. Bundan tashqari o‘lanlar, o‘tmishda, asosan, ko‘chmanchilik bilan hayot kechirgan chorvador o‘zbeklar o‘rtasida ijro etilgani, laparlarning o‘troq o‘zbeklar o‘rtasida aytilgani inobatga olinsa, ularning mavzu ko‘lami, tematikasi bir-biridan muayyan ma’noda farq qilishi anglashiladi. Qo‘srimcha qilib aytganda, o‘landa “ijrochilar mavzuga erkin yondashib, vaziyatga ko‘ra badihago‘ylik qiladilar, biri ikkinchisini to‘ldiradi, natijada tomonlarning biri g‘olib bo‘ladi. Ammo biz lapar deb qarayotgan “Soy bo‘yida turgan yigit”, “Boshginam og‘riydi-yo”, “Qoshingni qaro deydilar” kabi namunalarda she’riy matn deyarli o‘zgarmas shaklga kelgan va ushbu muhim jihat bilan ham o‘landan ajralib turadi. Yana bir farqli belgisi shuki, laparlар ijrosida musiqa sozlari, xususan, doira ishtirok etadi. O‘lan ijrosi sozlar ishtirokisiz ro‘y beradi”.³ Biroq xalq laparlari va o‘lanlarining deyarli barchasi yagona yirik va abadiy mavzu - muhabbat doirasida yaratiladi. Lapar va o‘landa sevgi-muhabbat mavzusining yetakchilik qilishi uning ikki jinsga mansub yoshlar o‘rtasida ijro etilishi bilan bog‘liqdir. Xususan, quyidagi laparda g‘oyibona oshiq yigit sevgilisining go‘zal jamolini ko‘rmoq qasdida unga lapar aytadi va qiz ham javoban o‘z laparini ijro etadi:

Yigit:

Qoshingni qaro deydilar,
Qora qosh ukam, yor-yor.
Ko‘rsat qoshingni men bir ko‘ray,
Zolim ukam, yor-yor.

Qiz:

- Qoshimni ko‘rib nima qilasiz,
Siz akajonim, yor-yor,
Yana akajonim, yor-yor,
Qaldirg‘ochning qanotini-
Ko‘rmabmidingiz, yor-yor?

Quyidagi o‘landa esa oshiq yigit ta‘rifidan ranjigan ma’shuqaning dil so‘zлari aks etgan:

Yigit:

O‘lan, yor-yor, aytishuvlar xalqning joni,
Qishlog‘imiz keksalari o‘lan koni.
Bir oz katta olib aytsam sizga do‘stlar,
Shu qoraqosh, mayiz nusxa mani jonim.

Qiz:

O, ho aka, man mayizga o‘xshadimmi,
Sizga aytay o‘ylab qo‘ygan bir shartimni.
O‘lan aytib siz olsangiz gar ko‘nglimni,
Shuning bilan forig‘ aylang siz dardimni.

Ijrochilarning ikki jinsga mansub bo‘lishi kuyov hamda kelin tomon o‘rtasidagi tortishuv vazifasini bajaradi va bunday savol-javob xarakteridagi aytishuvlarda so‘zga chechanlik va hozirjavoblik qilish, marosim etikasiga rioya qilish kabi shartlarni bajarish talab etiladi. O‘lan va lapar aytuvchi tomonlar hozirjavoblik bilan “raqib” tomonga javob qaytarishlari lozim. Agar qarshi tomonga o‘z vaqtida javob aytilmasa, u tomon yutqizgan hisoblanadi va dashnom eshitadi. Misol tariqasida hozirjavoblik bilan lapar aytva olmagan tomonga dashnom berilgan quyidagi laparni keltirishimiz mumkin:

Charximming qulog‘idan g‘il o‘tadi.
Men senga lapar solsam, yil o‘tadi.

² Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 2017. – B. 51

³ Turdimov Sh. Xalq qo‘shiqlarida ramz. – Toshkent: Fan, 2020. –

Eski somon ustiga yangi somon,
Menga lapar topmagan og‘zi yomon.

B.Sarimsoqov tomonidan laparga “aytishuv shaklidagi lirik qo‘shiq” deb ta’rif berilgan. Lapar aytishuvlari tarixan qadimgi dual jamiyatga xos ikki tomon o‘rtasidagi bahs-munozara bilan aloqadordir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, laparlar ikki qarama-qarshi jins vakillari tomonidan aytilgani uchun ham ulardagι bosh mavzu muhabbatdir. Misol tariqasida xalqimiz orasida ancha mashhur hisoblangan “Soy bo‘yida turgan yigit” laparini olaylik. Soy bo‘yida bilakuzugini yo‘qtib qo‘yan navnihol qiz soy bo‘yida yurgan yigitdan gumon qilib “bilakuzugimni qaytarib bering” mazmunida lapar aytadi, yigit bilakuzukni olganligini rad etib “olganlar bersin bilakuzugingni” deydi. Lapar mazmuni tadrijan taraqqiy qilib borib, qiz tilidan aytilgan quyidagi bayt sababli yigit bilakuzukni qaytarib berishga rozi bo‘lishi bilan nihoyalanadi:



Oq otingga-yo yol bo‘layin,
Oq yuzingga-yo xol bo‘layin,
Yoring yo‘qdir, yor bo‘layino,
Endi bergino bilaguzugim.

Yigitning qanday bo‘lmasin sevgilisini o‘z muhabbatini ochiq izhor qilishga majbur qila olganligi diqqatga sazovordir.

Xalqimiz orasida, shuningdek, “Na qilg‘aysan?” deb aytiluvchi savol-javob shaklidagi lapar keng tarqalgan bo‘lib, yigit va qiz o‘rtasidagi ushbu aytishuvda ham yigitning har bir savoliga qiz topqirlik bilan javob aytса-da, lapar yakunida yigit g‘olib kelib, qizdan visol roziliginи oladi.

—Sen soy chumug‘i bo‘lsang, yora,
Soylarga qarab uchsang.
Men tog‘ kaptari bo‘lib,
Orqangdan quvib yursam,
Yor, anda na qilg‘aysan?
—Sen tog‘ kaptari bo‘lsang, yora,
Orqamdan quvib yursang.
Men yurgan lochin bo‘lib,
Changalga olib qochsam.
Yor, anda na qilg‘aysan?

Laparlarning ikki shaxs o‘rtasida savol-javob, bahs-munozara tarzida kechishi tinglovchilarning mazkur janrga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishi tabiiydir. Ba’zan laparlardagi konfliktning nafaqat ikki, balki uch, hatto to‘rt kishi o‘rtasida ham kechishini kuzatishimiz mumkin. Xususan, “Tul bobo” laparida bobo, o‘g‘il, yosh qiz va kampir ishtirot etishadi. Shu sababli ham ushbu lapar qiziqrarli va ahamiyatga molik bo‘lib, undagi savol-javob, dialoglar quyidagi ketma-ketlikda sodir bo‘ladi:



Dastlab beva qolgan otasining ko‘nglini olish uchun o‘g‘il otasiga har xil xizmatlarini taklif qiladi-yu (joy solib, issiq choy damlab, osh qilib berish, loy tepish va h.), ota bularni rad etadi. Biroq aqlli o‘g‘ilning “kampir topib beraymi?” degan mulohazasi ota tomonidan mammuniyat bilan qabul qilinadi. Keyin esa keksa otaga kelin topish jarayoni boshlanib ketadi, o‘g‘il dastlab yosh qizga sovchi bo‘ladi. Lekin o‘z-o‘zidan ayonki, qiz rozi bo‘lmaydi:

Akajon, qarang, qarang dadangiz qari ekan.

Og‘zida bir tishi yo‘q, beri emas, nari ekan.

Nari turing, tayyor bo‘ling, Azroildan hushyor bo‘ling.

Qizning javobini eshitgan cholning jahli chiqadi, xafa bo‘ladi:

Ulijon, qara, qara bu juvonmarg asov ekan,

Uylansam o‘ldiradi, xotin emas qassob ekan,

Buni yo‘qot, mollarni sot, og‘zingni yop, boshqani top.

so‘ngi misradagi “...mollarni sot, og‘zingni yop” gaplari mazmunan bir-biriga bog‘lanmagandek, nazarimizda. Balki laparda aslida “...mollarni sot, og‘zini yop” shaklida (qari bo‘la turib yosh qizga og‘iz solgani xaloyiqqa oshkor bo‘lmasligi uchun) bo‘lgan-u, poraxo‘rlik lapar orqali targ‘ib qilinmasligi uchun mazmunan bir-biriga ulanmasa ham “...mollarni sot, og‘zingni yop” deyilgandir.

Bahs-munozara, savol-javob dastlab ota-og‘il, so‘ng kampir-o‘g‘il o‘rtasida bo‘lib o‘tadi va kampirdan rozilik oliniganidan keyin chol tomonidan to‘yga mammuniyat ila fatvo beriladi:

Ulijon, qara, qara momoginang pari ekan,

Farishta misol ekan, xotinlaming zo‘ri ekan,

Balli ulim, o‘choqni qur, qo‘ylarni so‘y, qozonni os.

“Qoshingni qaro deydilar”, Soy bo‘yida turgan yigit”, “Qoshing qaromi, yorim?”, “Boshginam og‘riydiyo”, “Bozor boraymi, qizim?”, “Na qilg‘aysan?” singari ko‘plab lapar aytishuvlaridagi konflikt yigit va qiz, yigit va qizning ota-onasi, yigit hamda qizga oshiq bo‘lgan raqib, aldangan qiz va uning yori, mehnatsevar inson va yalqov shaxs, tabiiy nuqsoni bor shaxslar (masalan, cho‘tir va buqoq) va hokazolar o‘rtasidagi ziddiyatlardan yuzaga keladi. Laparning ikki shaxs muloqot (dialogi), aytishuv shaklida ijro etilganligi, yigit va qiz kechinmalaridagi ziddiyatlar so‘z, xatti-harakat, mimika yordamida ifodalangani ma’lum ma’noda kuchli dramatizmni vujudga keltiradi.

Umuman olganda, badiiy asarlar mavzusining abadiy va davriy bo‘lishidan kelib chiqqan holda, shuningdek, lapar va o‘lan aytishuvlarining bir-biriga qarama-qarshi ikki jins vakillari tomonidan, asosan, nikoh to‘ylarining qizlar bazmida ijro etilganligi sababli shuni aytishimiz mumkinki, munozara janrining qadimiy ildizlaridan hisoblangan lapar va o‘lanlarda ishq- muhabbat degan abadiy mavzu yetakchilik qiladi. Ushbu mavzu doirasida

esa vafo-sadoqat, xiyonat, hijron, armon, visol shodliklari, g‘am-anduh kabi turli mavzular kuyylanadi. Lapar va o‘lan aytishuvlarida “Muhabbat tufayli olam rango-rang”, “muhabbat dunyoning bezagi, mazmuni”, “yaxshi umr yo‘ldosh- insonga beriladigan ne’matlarning eng go‘zali” kabi insoniy g‘oyalar ilgari suriladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muborak maktublar - Toshkent: G‘ofur G‘ulom, 1987
2. Abdurahmonova O. I. Nishotiy munozaralarining matniy tahlili – Toshkent, 2021

GXo‘jayev T. R. XV asr birinchi yarmi o‘zbek adabiyoti va folklor – Toshkent, 1996